

YOZMA DINIY MATNLARNING O'ZIGA XOS FUNKTSIONAL-SEMANTIK BELGILARI

Xalilova Muyassarxon Tolipovna
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozma diniy asarlarning tilshunos olimlar tomonidan o'rganilishi, diniy nutq ko'rinishining funksional uslub turi sifatida belgilanishi maqomi to'g'risidagi ilmiy mulohazalar keltirilgan bo'lib, diniy uslubning shakllanish tarixi, diniy uslubning mikromatn tarzidagi o'ziga xos uslubiy belgilari, lingvistik xususiyatlari talqin qilingan.

Kalit so'zlar: istiqloq, diniy e'tiqod, diniy matnlar, tabdil, tahrir, falsafa, ruhshunoslik, din, tilshunoslik, diniy tilshunoslik, teolingvistika, diniy uslub, diniy uslubning fonetik xususiyatlari, leksik xususiyatlari, diniy uslubning morfologik xususiyatlari, sintaktik belgilari, ta'kidni kuchaytirish, emotsional-ekspressivlikni oshirish.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ПРИЗНАКИ ПИСЬМЕННЫХ РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕКСТОВ

Халилова Муюссархан Толиповна
Ферганский государственный университет, преподаватель

Аннотация: В данной статье приведены научные соображения о состоянии изучения письменных религиозных произведений лингвистами, определение появления религиозной речи как вида функционального стиля, интерпретируется история формирования религиозного стиля, специфические методологические особенности религиозного стиля в форме микротекста, языковые особенности.

Ключевые слова: независимость, религиозное убеждение, письменные религиозные тексты, конверсия, редактирование, философия, психология, религия, языкознание, религиозное языкознание, теолингвистика, религиозный стиль, фонетические признаки религиозного стиля, лексические признаки, морфологические признаки религиозного стиля, синтаксические признаки, ударение, повысить эмоционально-выразительность.

SPECIFIC FUNCTIONAL-SEMANTIC SIGNS OF WRITTEN RELIGIOUS TEXTS

Khalilova Muyassarkhan Tolipovna
Fergana State University, teacher

Annotation: This article provides scientific considerations on the status of the study of religious works by linguists, the definition of the appearance of religious speech as a type of functional style, the history of the formation of the religious style, the specific methodological features of the religious style in the form of microtext, the linguistic features are interpreted.

Keywords: independence, religious belief, religious texts, conversion, editing, philosophy, psychology, religion, linguistics, religious linguistics, theolinguistics, religious style, phonetic features of religious style, lexical features, morphological features of religious style, syntactic features, emphasis, increase emotional-expressiveness.

Kirish. Istiqloq sharofati tufayli o'zligimizga, dinimizga qaytdik, mamlakatimizda islom diniga e'tiqod, hurmat-e'tibor kuchaydi, fuqarolarimizga diniy ibodatlar va diniy amallarni emin-erkin amalga oshirishlari uchun sharoitlar yaratib berildi va berilmoqda, Prezidentimizning diniy qadriyatlarini, masjid-madrasalarni tiklash, diniy bilimlarni o'qitadigan ilm maskanlarini barpo etish haqidagi Farmon va qarorlari e'lon qilindi. «Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi».

Din, e'tiqod erkinligi, ilm-fan taraqqiyotiga bo'lgan katta e'tibor, diniy bilimlarni yanada kuchaytirish to'g'risidagi Prezidentimiz farmonlari va hukumatimiz qarorlaridan kelib chiqib, diniy asarlarni o'rganish, diniy asarlar matnini qayta tiklash, tabdil, tahrir qilish ishlari

keng yo'lga qo'yilishi natijasida, dastavval, din va til ilmini o'rganuvchi sohani tayinlash haqidagi qarashlar o'rtaga tashlandi. Diniy va'zlardagi talaffuz va ohang, va'zlarning fonetik va prosodik xususiyatlari, diniy bilimlar bilan tilshunoslik, uslubiyat va ularning o'zaro aloqalarini o'rganish masalalarini bayon etuvchi tadqiqotlar maydonga keldi. Bu sohada, dastavval, diniy mohiyat va mazmuni tashuvchi atamalar, diniy uslubgagina xos terminlar; islom farzlariga bag'ishlangan asarlardagi shariatga, iymonga doir atamalar va iboralarning qo'llanish xususiyatlari tadqiq etildi. [6-8].

Adabiyotlar tahlili. Muqaddas islom diniga e'tiqod va hurmat, insonlarni ruhan, jismonan va ma'nan poklikka da'vat etuvchi diniy asarlarni o'rganish va ularni tahlil etish islom aqoyidlariga e'tiqodlar boshlangan paytlardayoq shakllangan. Dastlab Qur'oni Karimni tabdil va tahlil qilish natijasida falsafa, ruhshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik fanlariga doir dastlabki ilmiy qarashlar paydo bo'lib, buning natijasida keyinchalik esa Basradagi va Kufadagi tilshunoslik maktablari tashkil etildi. Din va tilshunoslik o'rtasidagi munosabatlarning o'rganilishi va chuqurlashishi negizida dunyo tilshunosligida yangi bir soha – diniy tilshunoslikning kelib chiqish ildizlari va xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan teolingvistika yo'nalishi maydonga keldi. Ushbu sohadagi dastlabki ilmiy qarashlar Devid Kristall, Jan P'ер van Noppen, Uilyam Samarini kabi olimlar tomonidan aytib o'tildi [11-148, 156.12-14, 15].

G'arbda teolingvistika atamasi ilk bor belgiyalik tilshunos olim, «teolingvistikaning otasi» Jan-Per van Noppen tomonidan 1981 yilda fanga olib kiritilgan. Olim «Teolingvistika» deb atalgan maqolalar to'plamini yaratib, teolingvistikaning rivojlanishiga dinshunoslar, tilshunoslar, faylasuflar, psixologlar, antropolog va sotsiologlar xizmat qilishlarini ta'kidlaydi.

Teolingvistikaning vujudga kelishi va rivojlanishida din, til va tilshunoslikning nazariy masalalarini chuqur o'rgangan olim D.Kristall dunyo tilshunosligida teolingvistikaning alohida soha sifatida o'rganilishi va rivojlanishi uchun ulkan hissa qo'shgan tilshunos sifatida e'tirof etildi. «Teolingvistika» terminini sohaga oid terminografik lug'atlarda aks ettirgan olimlardan biri aynan Devid Kristaldir. U o'zining «Lingvistika va fonetika lug'ati» kitobida teolingvistika terminini «... til bilan diniy qarashlar va diniy amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi ilm uchun ishlatiladigan termin» sifatida izohlaydi. Bu teolingvistika terminiga D.Kristall tomonidan berilgan birinchi ta'rif edi.

Mustaqillik yillaridan boshlab diniy mazmundagi asarlar nashrlari keng yo'lga qo'yildi, buning samarasi o'laroq, o'zbek tilshunosligida ham diniy asarlarning tuzilishi, muqaddas Qur'on oyatlarining tafsiri, hadislar va ularning sharhlarini o'rganish bilan bir qatorda diniy uslubning fonetik, leksik xususiyatlarini talqin qilinishi bilan bog'liq tadqiqotlar maydonga keldi.

2000 yillarda arabcha shar'iy iymonga oid atamalarning izohi, talqini va ularning inson ma'naviyatini oshirishdagi o'rni va vazifalariga oid diniy mazmundagi ilmiy asarlar ham yaratildi. Shu ma'noda T.Yuldashevning nomzodlik dissertatsiyasi o'zbek tilida diniy atamalarining shakllanish tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bosqichni boshlab berdi. Dissertatsiyada A.Navoiyning «Siroju-l-muslimiyn» va Boburning «Mubayyin» asarlarida qo'llangan shar'iy atamalar birinchi marta jamlanib atroflicha tahlil etildi. Mazkur asarlardagi shar'iy atamalar leksik-semantik, geneologik, grammatik jihatdan tahlil etildi. Har ikki asarda qo'llangan shar'iy atamalarni tahlil etish, o'zaro chog'ishtirish orqali Navoiy va Boburning o'zbek atamashunosligiga qo'shgan hissasi ko'rsatib berildi.

Ushbu asarlar insonlarning e'tiqod, farz, namoz, ro'za, haj, turli ahkomlar, Yaratganning subutiy sifatlariga doir bo'lgan tushunchalarini yanada oydinlashtirib boyitishlari, aniqlashtirib o'rganishlari uchun katta ahamiyatga ega ekanliklari alohida talqin qilinadi.

Muhokama. Diniy adabiyotlarda hamda farz, ibodatlarda qo'llaniladigan arabcha, forsha atamalarning keng xalq ommasiga tushunarli va qo'llanishda oson bo'lishini ta'minlash uchun yaratilgan yana bir muhim qo'llanmalardan biri professor Muxtorxon Umarxo'jaevning «Diniy atama va iboralar» izohli lug'ati diniy atamalar lug'aviy ma'nolarini izohlashga bag'ishlangan bo'lib, diniy tushuncha va tasavvurlarni yanada boyitish, ularning asl mohiyatini tushunib yetish hamda ma'nolariga mos tarzda o'z o'rnida qo'llashda dolzarb muhim amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Diniy matnlarning lingvistik tadqiqiga bag'ishlangan yana bir tadqiqot Sh. Yusupovning «Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi» mavzuidagi tadqiqot ishida Qur'on tafsiri, hadislar, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ma'ruzalari, Alixonto'ra Sog'uniyning «Tarixi Muhammadiy» asari va ba'zi diniy-ommabop nashrlar misolida diniy matnlarning

ba'zi uslubiy, funktsional va lingvopragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi, matn haqidagi ta'riflar va qarashlar keltirilib, diniy matnga ta'rif beriladi.

«Diniy matnlar – diniy an'analar bilan bog'liq, dinning markaziy tushunchalarini o'zida aks ettiradigan, diniy e'tiqod, diniy ko'rsatmalarni jamlaydigan matn turidir»[9-12]. O'zbek tilidagi islom diniga oid og'zaki va yozma diniy matnlarni bir necha guruhlariga bo'lib tasniflaydi.

Ushbu tadqiqotda boshqa funktsional uslublar qatori diniy funktsional uslubning ham mavjudligi, bu borada rus, polyak va o'zbek olimlarining qarashlarini, diniy nutq uslubini funktsional uslublar qatoriga kiritish mumkinligi to'g'risidagi fikrlarini keltirib o'tadi. «Bugungi kunda tilshunoslikda diniy funktsional uslubning mavjud ekanligi haqida bildirilayotgan fikrlar va mulohazalar diniy matnlarni ham funktsional uslublar nuqtai nazaridan o'rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Diniy matnlar qator xususiyatlari bilan mavjud besh funktsional uslubga oid matnlardan farqlanadi. Diniy matnlar jahon tilshunoslari tomonidan e'tirof etilayotgan diniy uslub nuqtai nazaridan o'rganilishi maqsadga muvofiqdir», - deya o'z mulohazalarini bildirib o'tadi[9-18].

Kishilik jamiyatining ilk shakllanish davrlarida tiriklik va hayot qoidalari aks etgan muqaddas diniy adabiyotlar (Qur'on, Injil)ning nozil bo'lishi hamda hadislarning tartibot qilinishi, yaratilishi haqida gap ketganda, diniy matnlar qadimgi xoqon, podshohlarning davlat tuzilishi to'g'risidagi qonunlari, ko'rsatmalari, rasmiy nomalar va yorliqlardan ham ancha oldin paydo bo'lganligini bilish mumkin. Eramizdan avvalgi davrlarida qadimgi sanskrit tilida yozilgan hind vedalari ham diniy matnlarning ilk namunalari bo'lib, eramizdan avvalgi 1700 – 1100 yillarda yaratilgan, deb taxmin qilinadi, vedalarning juda ham qadimiy davrlarga borib taqalganligi uchun hinduiylikda vedalar insonlar tomonidan yaratilmagan, deb aytilgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto» ham qadimiy diniy asarlardan biridir. Muqaddas Qur'onning nozil bo'lishi, hadislarning to'plab talqin qilinishi diniy matnlarning qadimgi davrlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

Sharqda din va til masalalarini o'rganish ancha oldin boshlangan bo'lib, dinga oid lingvistik qarashlar «arab tilshunosligi» atamasi ostida Qur'oni karimni tadqiq qilish asnosida vujudga kelgan[9-12]. «Arab tilshunosligi amaliy ehtiyoj natijasida, Qur'on nutqini to'g'ri talaffuz qilish ehtiyoji bilan, shuningdek, arablar va shuubiylar (eroniylar) o'rtasidagi arab tili yuzasidan mubohasasi jarayonida vujudga keldi»[3-30]. Muqaddas Qur'onni tabdil va tahlil qilish, Qur'on ayatlarini ma'nolarini izohlash, mazmunini sharhlab yetkazish amaliy tilshunoslikning fan sifatida shakllanishiga turtki bo'lgan. Sharqdagi ushbu jarayon – din va tilshunoslik kesishuvidagi masalalari g'arbdagi teolingvistikaning mustaqil tarmoq sifatida shakllanishidan ancha oldin VII - VIII asrlarda vujudga kelganligini ko'rsatadi. Islom ma'rifati va madaniyatining kirib kelishi va keng yoyilishi arab tilining o'rganilishini taqozo etgan. Mumtoz arab tili Qur'onni o'rganish vositasi sifatida keng tarmoq otgan. Islom dinini mukammal egallashni xohlagan kishilarning arab tilini mukammal bilishlari shart deb belgilangan. Bu esa din va tilshunoslik ilmining bir-biriga uzviy bog'liq holda shakllanib rivojlanishi natijasida din va tilshunoslik kesishmasidagi yangi tarmoq – diniy uslubning paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

Jahon tilshunosligi va o'zbek tilshunosligida ko'pchilik olimlarning e'tirof etganlaricha, darsliklar va qo'llanmalarda ham uslublar soni beshta deb belgilangan: 1) badiiy uslub, 2) ilmiy uslub, 3) rasmiy uslub, 4) publitsistik uslub, 5) so'zlashuv uslubi.

Til doim harakatda ekan, tildagi yangi mavjud bo'lgan va turli yangilanishlarni ifoda etuvchi birliklar fikrning ifoda mazmuni, ifoda ko'lami va muallifning maqsadiga qarab, nutqning ma'lum turiga yo'naltiriladi. Diniy haqidagi tasavvurlar, diniy adabiyotlar qadimdan beri mavjud bo'lib, qadimdan ajdodlarimiz zardo'shtiylik, islom diniga e'tiqod qo'yganlar, dinga oid tasavvur va tushunchalarni o'zlashtirganlar, Qur'on ilmini egallashgan, Imom al-Buxoriyning muborak hadislari, So'fi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy asarlarini sevib mutolaa qilishgan. Ammo Chor Rossiyasining Turkistonni istilo qilgan davrlaridan boshlab, muqaddas kitoblar, Hadisi sharif, diniy adabiyotlarni o'qib-o'rganish cheklab qo'yilgan, Muqaddas kitoblar, diniy adabiyotlar yoqib yuborilgan. Shuning uchun juda katta bir tarixiy davr mobaynida diniy adabiyotlarning mazmun-mohiyati, uslub-yo'nalishi, lingvistik xususiyatlari o'rganilmagan, diniy uslubning mavjudligi haqidagi hech qanday mulohazalar bildirilmagan.

Natija. Demak, yuqoridagi mulohazalarga ko'ra, «diniy matnlar o'z terminologiyasiga ega va u keng qamrovlidir», «diniy nutq poetikasi» deganda, «diniy va'zlarning diniy

ulamolar tomonidan o'qilganda yuqori darajadagi ekspressivlikning namoyon bo'lishi» belgilari, «diniy matnlarda faqat shu nutqqa xos bo'lgan dialogizmning namoyon bo'lishi», «diniy matnlarning odatda, pand-nasihati usulida yozilishi, insonlarni tarbiyalash, ularni yaxshilikka chorlash, yomonlikdan qaytarish maqsadlarini ko'zda tutishi» [10:28-40] kabi sanab o'tilgan xususiyatlari ham ushbu nutq ko'rinishini alohida uslub sifatida mavjudligini belgilab beradi. Aslida funktsional nutq har bir turining shakllanishi, ma'lum bir o'ziga xos uslub sifatida namoyon bo'lishi va belgilanishi uchun tizimli fonetik, leksik, grammatik o'ziga xosligi va stilistik tamoyillariga ega bo'lishi lozim. Diniy nutq ko'rinishida doimiy qo'llanuvchi til vositalari shu nutq turining uslubiy o'ziga xosligi, lisoniy belgilarini keltirib chiqaradi. Masalan:

«Va nafs bilan va uning bekamu ko'st qilinishi bilan qasam. Unga fujurini va taqvosini ilhom qildi. Batahqiq, kim u (nafs)ni poklasa, zafar topdi. Va batahqiq, kim uni bulg'asa, noumid bo'ldi».

(Qur'oni Karim, Shams surasi, 7 – 10-oyatlar).

Keltirilgan nutq parchasida arab tilidan o'zlashgan diniy mazmundagi va nafs, bekamu ko'st qilinishi, qasam, fujurini, taqvosini, ilhom qildi (bu o'rinda in'om qilmoq ma'nosini ifodalagan), batahqiq, poklamoq, zafar topmoq (bu o'rinda yutmoq yoki erishmoq ma'nolarida kelgan), bulg'amoq (ifloslantirmoq ma'nosida), noumid bo'ldi (erishmadi yoki sazovor bo'lmadi) atamalar va iboralar ishlatilgan bo'lib, ular shu uslubga aynan xoslanganligi bilan uning boshqa uslublardan farqlantirib turuvchi o'ziga xos yo'nalish – yaxshi fazilatga bo'lish, pand-nasihati, ma'naviy poklanish mazmuni qurshovini ifodalab kelgan.

Mikromatndagi grammatik vositalar: gap boshida va so'zlar o'rtasida kelgan va bog'lovchisi diniy uslubga xos bo'lgan uyg'unlik, fikrning tadrijiy davomini ketma-ket izohlab berish maqsadida, bilan ko'makchisi fikrni asoslab (qilinishi bilan) ko'rsatish uchun ishlatilgan, -sa shart mayli qo'shimchasi insonlarni yomonliklardan qaytarish, poklikka chaqirish shartlarini ifodalash maqsadida ishlatilgan bo'lib, ushbu vositalar biri ikkinchisini taqozo etgan tizimli tarzda, yaxlit holda birikib, bir butun holda mazmunan o'z nafsini tiya olgan va uni bekamu ko'st qila olgan shaxslarga fujur va taqvo in'om qilishi, nafsini poklagan insonlar zafar topishi, ya'ni g'olib bo'lishi, aksincha, o'z nafsini bulg'agan insonlar noumid bo'lishlari g'oyasi ifodalangan. Mikromatn tarkibidagi lug'aviy va grammatik vositalar izchil bog'langan ikkita sodda gap, ikkita qo'shma gaplar tarkibida o'rinli tarzda ishlatilgan hamda ularni o'zaro bog'lash uchun xizmat qilgan. Ushbu sintaktik birliklar mazmunan va grammatik jihatdan bog'lanib, bir umumiy mazmuniy yadro – «Alloh tomonidan insonlarni bekamu ko'st qilib yaratilishiga berilgan Nafs orqali unga fujur va taqvo berildi. Bu nafsni poklab yurganlar g'olib bo'ldi, aksincha, uni bulg'aganlar esa noumid bo'ldi. Ya'ni insonlarning o'z nafsini poklab yurishga undash» mazmuni atrofida birlashib, fikr mazmuni va ezgulik qilishga undash maqsadini aks ettirishi orqali alohida yo'nalish – pand-nasihati, yaxshilikka undash mazmunidagi o'ziga xos uslubni hosil qilgan. Ushbu uslubda diniy amallar, diniy mushohadalar mohiyatini aniq, batafsil yetkazib berish maqsadida dastlab sodda gaplardan foydalanilgan bo'lib, diniy amallarning bajarilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar, vaziyatlarni izohlab, to'ldirib ko'rsatish maqsadida qo'shma gaplardan foydalaniladi. Shu bilan birga, bildirilayotgan fikr bilan bog'liq ta'kidni kuchaytirish maqsadida ayrim so'zlar (bog'lovchilar) takrorlangan holda qo'llanib, fikr ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Xulosa. Demak, badiiy hamda publitsistik uslublarda bo'lgani kabi diniy nutq mikromatnlari ham emotsional-ekspressivlikka ega bo'lib, diniy matnlardagi ta'sirchanlik tiriklik mazmuni, inson ruhiyatini, tafakkurini oziqlantirish, ruhiyatni davolash hamda ko'tarinkilikka erishtirish kabi murakkab funktsiyalarni bajaradi. Mana shu funktsionallik kasb etishi, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun ham funktsional uslublar tizimida diniy uslub alohida uslub turi sifatida belgilanishi va o'rganilishiga haqli, deb o'ylaymiz hamda yozma diniy uslubga xos matn tarzida ifoda ko'lamiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Диний маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида ПФ – 5416-сонли Фармони, 2018 йил, 16 апрель.

2. Жданова И. В. Семантико-структурная и функциональная специфика заглавий богословско-религиозного жанра // Молодой ученый 2011. - №3. Т., – с. 12-17. URL: <https://moluch.Ru/archive/26/2773/> (Дата обращения: 20.02. 2020).

3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 30-б.

4. Галиева М. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши. Филол.фан.доктори (DSc)дисс. ...авторефер. – Фарғона, 2019. –79.
5. Султонова Ш. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари. Филол.фан. ...фалсафа доктори (PhD)дисс. Автореф. – Фарғона, 2018. –55.
6. Улуков Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси. Филол.фан.ном....дис. автореф. – Тошкент, 1997. - 29 б.
7. Умархўжа М. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент, 2016. –220 б.
8. Юлдашев Т.К. Навоий ва Бобурнинг ислом фарзларига бағишланган асарларида қўлланган шаръий атамаларнинг лисоний таҳлили. Филол. фан. ном. ...дисс. авторефер. – Тошкент, 2003. –23 б.
9. Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Фарғона, 2021, 12- б.
10. Юсупова Ш. Диний матн прагматикаси. – Фарғона, 2020, 28 – 40- бетлар.
11. Crystal D. A liturgical language in a linguistic perspective. –New Blackfriars, 1964, 46(534), - P. 148-156.
12. Crystal D. Linguistics, Language and Religion. –London: Burns and Oates, 1965.